

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatini huzuridagi  
Jamoatchilik kengashi  
NIZOMI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatini (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat, deb yuritiladi) huzurida tuzilgan Jamoatchilik kengashining (keyingi o‘rinlarda – Jamoatchilik kengashi, deb yuritiladi) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatları, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Jamoatchilik kengashi o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi maslahat organi bo‘lib, Boshqaruvi raisi - Bosh direktori buyrug‘i bilan tashkil etiladi.

**2-bob. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari va funksiyalari**

***Jamoatchilik kengashining quyidagilar asosiy vazifalari hisoblanadi:***

2.1. Fuqarolar, nodavlat-notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni ta’minlash, Jamiyat manfaatlariga doir muhim masalalar yuzasidan jamoatchilik fikrini o‘rganib borish, monitoringini yuritish va har tomonlama tahlil qilishni amalga oshirish.

2.2. Ma’naviy muhit, qonuniylik, huquqiy madaniyat va odob-axloq bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

2.3. Jamoada targ‘ibot-tashviqot, tushuntirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish va amalga oshirish.

2.4. Jamiyat faoliyatining ochiqligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni monitoring qilib borish.

***Jamoatchilik kengashi quyidagilar asosiy funksiyalari hisoblanadi:***

2.5. Fuqarolar, nodavlat-notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining Jamiyatga murojaatlari va so‘rovlari ko‘rib chiqishda ishtirok etadi, ularni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha rahbariyatga takliflar tayyorlaydi.

2.6. Fuqarolar, nodavlat-notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining samarali shakl va usullarda o‘zaro hamkorligi tahlilini amalga oshiradi va takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi.

2.7. Jamiyat faoliyatiga doir normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, ichki idoraviy hujjatlarni takomillashtirishda ishtirok etadi.

2.8. Qonuniylik, yuqori huquqiy madaniyat va axloqiylikni ta’minlash, ishchi-xodimlar qalbida Vatanga sadoqat va qonunlarga hurmat ruhini kuchaytirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirdarda ishtirok etadi.

2.9. Faoliyatga doir ilmiy-amaliy anjumanlar, seminarlar, davra suhbatlari ishtirok etadi.

2.10. Faoliyatni rasmiy veb-saytlar, ommaviy axborot vositalarida yoritish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qiladi, ularning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi.

2.11. O‘ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda fuqarolar, nodavlat-notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qiladi.

2.12. Amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar haqida jamoatchilikni xabardor qilish va bu bo‘yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi.

### **3-bob. Jamoatchilik kengashining huquq va majburiyatlari**

#### *Jamoatchilik kengashi quyidagi huquqlarga ega:*

3.1. O‘z vakolati doirasida Jamiyatdan kerakli hujjatlar, statistik va tahliliy ma’lumotlarni so‘rab olish.

3.2. Rahbariyat bilan kelishilgan holda yig‘ilishlar hamda boshqa tadbirlarda ishtirok etish.

3.3. Xodimlar (xizmatdan bo‘shatilgan xodimlar) hamda ular oila a’zolarining konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini o‘rganish.

3.4. Xodimlar roziligi bilan ularning xizmat o‘tash va yashash sharoitlari bilan tanishish.

3.5. Rahbariyat va tizimdagи bo‘linmalar rahbarlariga Jamoatchilik kengashi vakolatiga tegishli masalalar bo‘yicha takliflar kiritish.

3.6. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga davlat va jamoat arboblari, olimlar, mutaxassislar, fuqarolar, nodavlat-notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb qilish yuzasidan takliflar berish.

3.7. Jamoatchilik kengashi faoliyatini muntazam ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.

3.8. Jamoatchilik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

#### *Jamoatchilik kengashi quyidagi majburiyatlarga ega:*

3.9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari, boshqa qonun hujjatlariga hamda mazkur Nizomga amal qilish.

3.10. Foydalanish doirasi cheklangan toifadagi hujjatlar bilan ishlash qoidalariga qat’iy rioya qilish.

3.11. Jamiyat faoliyatining mustaqilligi va uning ishiga aralashmaslik tamoyillariga qat’iy rioya qilish.

3.12. Jamoatchilik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

### **4-bob. Jamoatchilik kengashi tarkibi**

- 4.1. Jamoatchilik kengashi tarkibiga rais, rais o‘rnbosari, kotib va a’zolar kiradi.
- 4.2. Jamoatchilik kengashi raisi, rais o‘rnbosari va kotibi kengash a’zolari orasidan tayinlanadi.

4.3. Jamoatchilik kengashi a’zolari (tarkibi) Boshqaruv raisi – Bosh direktor buyrug‘i bilan ko‘ngilli ravishda har 3 (uch) yilda tasdiqlanadi.

4.4. Jamoatchilik kengashi tarkibiga jamiyat ishchi-xodimlari, faxriylari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari vakillari, xotin-qizlar va yoshlar, chetdan nodavlat-notijorat tashkilotlar vakillari kiritiladi.

4.5. Jamoatchilik kengashi a’zolari soni 13 nafardan 25 nafargacha etib belgilanishi mumkin.

***Jamoatchilik kengashi raisi quyidagi vakolatlarga ega:***

4.6. Jamoatchilik kengashiga umumiy rahbarlik qilish, majlisini chaqirish va kun tartibini belgilash.

4.7. Jamoatchilik kengashi majlisiga raislik qilish.

4.8. Jamoatchilik kengashi ish rejasi, majlis bayonnomasi va ish yurituviga oid boshqa hujjatlarini tasdiqlash.

4.9. Jamoatchilik kengashi qarorlari bajarilishini nazorat qilish.

4.10. Jamoatchilik kengashi faoliyati va a’zolarga yuklatilgan topshiriqlarni bajarilishini muvofiqlashtirish.

4.11. Rahbariyatga Jamoatchilik kengashiga kiruvchi shaxslarni tarkibdan chiqarish bo‘yicha taklif kiritish.

4.12. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

***Jamoatchilik kengashi raisi o‘rnbosari, kotibi va a’zolari vazifalarini quyidagilardan iborat:***

4.13. Jamoatchilik kengashi raisi o‘rnbosari:

Jamoatchilik kengash raisi yo‘qligida uning vakolat va vazifalarini amalga oshiradi, majlislarga raislik qiladi;

Jamoatchilik kengashi qarorlari bajarilishini nazorat qilish ishlarini tashkil etadi;

Jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish, ariza, taklif va shikoyatlarni ko‘rib chiqishda ishtirot etadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

4.14. Jamoatchilik kengashi kotibi:

Jamoatchilik kengashi majlisiga kerakli hujjatlarni tayyorlaydi;

Jamoatchilik kengashi majlisini tashkillashtiradi;

Jamoatchilik kengashi raisi bilan majlis o‘tkazish muddati, joyi hamda taklif qilinuvchilar haqida maslahatlashadi;

Jamoatchilik kengashi a’zolari va taklif qilingan shaxslarni majlis o‘tkazish joyi, sanasi va vaqtি haqida xabardor qiladi;

Jamoatchilik kengashi majlis qarorlari bajarilishini monitoring qilib boradi va uning natijalarini majlisda ko‘rib chiqish bo‘yicha taklif kiritadi;

Jamoatchilik kengashi bayonnomasini rasmiylashtiradi hamda tasdiqlangan bayonnomani a’zolar va boshqa manfaatdor shaxslarga yuborilishini ta’minlaydi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

4.15. Jamoatchilik kengashi kotibiga belgilangan tartibda lavozim yo'riqnomasidan tashqari qo'shimcha vazifa yuklatilishi va ish hajmidan kelib chiqib qo'shimcha ustama to'lanadi.

4.16. Jamoatchilik kengashi a'zolari:

Jamoatchilik kengashi majlislarida ko'rildigan masalalarni hal qilish va muhokama qilishda o'z vakolatlarini berish huquqisiz qatnashadilar. Jamoatchilik kengashi a'zolari ayrim hollarda Jamoatchilik kengashi majlislarida qatnasha olmagan taqdirda, o'z fikrlarini yozma tarzda Jamoatchilik kengashi kotibiga taqdim etishlari mumkin. Ko'rsatib o'tilgan fikrlar majlisda ko'rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi;

Jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda o'z takliflari bilan ishtiroy etadi;

xodimlar va ularning oila a'zolarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha o'z takliflarini kiritadi;

zaruratdan kelib chiqib ekspertlarni jalb etish yuzasidan takliflarini bildirish mumkin.

## **5-bob. Jamoatchilik kengashi Ishchi organi**

5. 1. Matbuot markazi Jamoatchilik kengashi ishchi organi hisoblanadi.

5.2. Ishchi organi:

Metodik, tashkiliy-huquqiy, texnik ta'minot masalalarini hal qiladi;

Ish reja loyihasini Jamoatchilik kengashi raisiga ko'rib chiqish uchun kiritadi va uning bajarilishini ta'minlaydi;

Jamoatchilik kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur hujjatlarni tayyorlaydi, Jamiyat bo'limmalari va xodimlaridan kerakli hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

Jamoatchilik kengashi majlisi kun tartibidagi masalalar bo'yicha tahliliy materiallar tayyorlaydi;

Jamoatchilik kengashi vakolatlariga kiruvchi murojaatlarni ko'rib chiqadi va tegishli hujjatlarni tayyorlaydi;

Jamoatchilik kengashi tomonidan berilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

## **6-bob. Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil qilish**

6.1. Jamoatchilik kengashining faoliyati ushbu Nizom asosida ishlab chiqilib, tasdiqlangan Reglamentda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6.2. Reglamentda quyidagilar belgilanadi:

Jamoatchilik kengashi a'zolari uning faoliyatida ishtiroy etishi tartibi;

Jamoatchilik kengashi yig'ilishlarini o'tkazish muddatlari va tartibi;

Jamoatchilik kengashi Ishchi organi ish tartibi;

Jamoatchilik kengashi komissiyasi faoliyati va tuzilishi tartibi, shuningdek, rahbar vakolatlari va uni saylash tartibi;

Jamoatchilik kengashi a'zolari vakolatlarini to'xtatish va tugatish tartibi;

Jamoatchilik kengashi qarorlari loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish tartibi;

Jamoatchilik kengashida tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va tadbirlarni o‘tkazish tartibi;

Jamoatchilik kengashi faoliyati tartibiga doir boshqa masalalar.

6.3. Jamoatchilik kengashi faoliyatining asosiy masalalari uning majlislarida ko‘rib chiqiladi. Jamoatchilik kengashi majlisi Jamoatchilik kengashining ish rejasi asosida kamida har yilda bir marotaba chaqiriladi.

6.4. Jamoatchilik kengashi raisi a’zolarning kamida uchdan bir qismining yozma murojaati asosida navbatdan tashqari majlis chaqirishi mumkin.

6.5. Jamoatchilik kengashi majlislariga davlat va nodavlat-notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari taklif qilinishi mumkin.

6.6. Jamoatchilik kengashi majlisiga taklif qilinuvchi shaxslar ro‘yxati Jamoatchilik kengashi raisi va a’zolari bilan kelishgan holda kotib tomonidan shakllantiriladi.

6.7. Majlis kun tartibi loyihasi Jamoatchilik kengashi raisi va a’zolar takliflari asosida kotib tomonidan shakllantiriladi.

6.8. Jamoatchilik kengashi majlislari uning raisi tomonidan olib boriladi. Rais ishtirok eta olmagan hollarda majlisga uning o‘rinbosari raislik qiladi.

6.9. Jamoatchilik kengashi majlislarida Jamiyat rahbariyati yoki boshqa xodimlari ishtirok etishi mumkin.

6.10. Jamoatchilik kengashi majlisi unga taklif qilingan shaxslarning uchdan ikki qismidan kam bo‘lmagan qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda qonuniy hisoblanadi. Agar, majlis olib borish uchun kvorum shakllanmasa, Jamoatchilik kengashining yangi majlis o‘tkazish sanasini e’lon qilinadi.

6.11. Jamoatchilik kengashi qarori uning majlisida qatnashayotgan a’zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Agar ovozlar teng kelib qolsa, Jamoatchilik kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

6.12. Jamoatchilik kengashi qaror qabul qilishda masalalarni erkin muhokama qilish, ovoz berish, jamoatchilik fikrini inobatga olish, tenglik va kollegiallikka asoslanadi.

6.13. Jamoatchilik kengashining har bir a’zosi qabul qilingan qarorga o‘zining fikrlarini yozma tarzda bildirish huquqiga ega. Bunda, fikrlar Jamoatchilik kengashi majlisi bayonnomasiga kiritib qo‘yiladi.

6.14. Jamoatchilik kengashining qarori qabul qilingan kundan boshlab uch kundan kechikmasdan Jamiyat rahbariyatiga yuboriladi.

6.15. Jamoatchilik kengashining qarori tavsiyaviy xarakterga egadir. Agar qaror Jamiyat rahbariyati tomonidan ma’qullanmasa, Jamiyat qaror qabul qilingan kundan boshlab o’n kundan kechikmasdan Jamoatchilik kengashiga asoslantirilgan javobini taqdim qiladi.

6.16. Tezkor qaror qabul qilish zarurati kelib chiqqanda, Jamoatchilik kengashining qarori Jamoatchilik kengashi raisi tashabbusi bilan a’zolar bilan maslahatlashilgan holda so‘rov yo‘li bilan qabul qilinishi mumkin.

6.17. Jamoatchilik kengashi majlisida qabul qilingan qaror majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bayonna ma’qulligi imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi hamda uch kunlik muddatda a’zolar va boshqa manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

6.18. Jamoatchilik kengashi Ishchi organi va kotibi kengash a'zolari bilan birgalikda kengash qarorlarini ijro etish yo'llarini tizimli o'rganadi va ko'rib chiqadi, zarur hollarda, Jamoatchilik kengashi raisiga takliflar kiritadi.

6.19. Ishchi organ Jamoatchilik kengashi qarorlarini ijro etish natijalari haqida har oyda Jamoatchilik kengashi raisiga ma'lumot taqdim etadi.

## **7-bob. Yakunlovchi qoidalar**

7.1. Jamoatchilik kengashi uchun ish sharoiti, moddiy-texnik ta'minoti Jamiyat tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

7.2. Jamoatchilik kengashi faoliyatni tashkil etish hamda qarorlari ijrosi yuzasidan belgilangan tartibda Jamiyat rahbariyatiga shikoyat qilishi mumkin.

7.3. Jamoatchilik kengashi zaruriy hollarda Jamiyat va chetdan mutaxassislar, ekspertlarni jalb etish mumkin.